Aylanma kapital bilan ishlashda samaradorlikni oshirish: korxona moliya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarida data science yondashuvlari	975
Khoshimov Doniyor, Kungratov Ilmurod Kuzibay o'g'li	
Davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiyaning roli	982
Musurmonov Mehroj Murtaza o'g'li	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda tijorat banklariga moliyaviy resurslarni jalb qilish metodologiyasini takomillashtirish	988
Hamrayev Obid Akhatovich	
Tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va uning samaradorlikka ta'siri (xorijiy tajriba).....	993
Usmonova Vasila Botirovna	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyoti tahlili.....	997
Akramova Nargiza Nutfillayevna	
Using integrated marketing communications (IMC) in business management	1002
Ziyayeva M.M.	
Xorijiy mamlakatlarda tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish masalalari va ulardan o'zbekistonda foydalanish istiqbollari.....	1006
Jaxongirov Ilindorjon Jahongirjon o'g'li	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi xarajatlarini samarali boshqarish yo'llari.....	1011
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Mintaqada xalq hunarmandchiligida klasterlash va ekologik logistika modeli asosida savdo tizimini shakllantirish.....	1015
Norqobilova Feruza Abduhomidovna	
To'g'ri xarajatlar usuli va to'liq yutuvchi xarajatlar usuli tizimlarining afzalliklari va farqli jihatlari amaliy misolda.....	1019
Kholisa Kamoliddinovna Kuldosheva	
Investitsiyalarni innovatsiyalarga yo'naltirish bo'yicha xorij tajribasi	1024
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1028
Каримова Нуржахон Олим кизи	
Sanoat korxonasining raqamli transformatsiyasini baholash omillari va ko'rsatkichlari.....	1032
Kudaybergenov Azamat Shamuratovich	
Namangan viloyatida ijtimoiy turizm tadbirkorligini maqsadli boshqarish mexanizmi.....	1042
Yunusova Sohiba Abdumamidovna	
Evaluating the capital asset pricing model methodology in uzbekistan companies	1048
Bunyod Usmonov	
Aholini ish bilan bandligining yangi turlari va imkoniyatlari	1055
A.B. Khayitov	
Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va o'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari	1059
Mamura Tadjibayeva	
Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari	1064
Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon	
Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari	1071
Sanaqulov Sardor Istamqulovich	



Bank xizmatlari sifati va bank daromadlariga ta'sir etuvchi omil sifatida personal faoliyatining o'rni.....	1075
Abdukaxarova Shoirabonu Abduvohobovna	
Fond bozori raqamli iqtisodiyotda investitsiyalarni shakllantirish manbai sifatida.....	1079
Kamilova Sevara Anvarovna	
O'zbekistonda toza suv va sanitariyaning inson hayoti hamda iqtisodiy farovonlikka ta'siri: BRM-6 doirasida tahlil.....	1085
Xasanova Iroda Azizbek qizi	
Increasing the effectiveness of using marketing communications in the tourism services market.....	1090
Sobirjonov Asrorbek Sobitjon ugli	
Davlat xaridlari sohasini takomillashtirish istiqbollari.....	1095
Bazarov Nazirjon Sobirovich	
Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini xo'jalik yurituvchi subyektlarda takomillashtirish.....	1103
Xayitboeva Laylo Oybekovna	
Davlat moliyaviy nazorati tizimida tashqi audit: rivojlangan mamlakatlar amaliyoti.....	1109
Kuliyev Komil Shuxratovich, A.Astanovulov	
Moliyaviy instrumentlarni hisobga olishda biznes modelning ahamiyati va amaliy yondashuvlar.....	1114
Shanasirova Nodira Abdullayevna	
Tijorat banklarida risklarni boshqarishning ustuvor yo'nalishlari.....	1118
Tursunov Ilxom Toirovich	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga tasir etuvchi omillarni baholash.....	1124
Yuldasheva Gulmira	
Managing tourism in fragile ecosystems: a case study approach.....	1128
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash uslublari.....	1134
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Зарубежный опыт развития инновационной деятельности предприятий энергетической отрасли.....	1141
Бегмуплаев Отабек Ирисалиевич	
Leveraging machine learning for big data analytics: a strategic overview.....	1148
Ismaylov Timur Kuanishbaevich, Kurbanbaev Bakhtiyar Bakhtovich, Orazbayev Aqilbay Jenisbay uli	
Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini yuritilishi.....	1152
Isoqulov Fazliddin Shamsiddin o'g'li	
"Yengil sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralari haqida".....	1158
Otaxanova Umida Olim qizi	
Investitsion-qurilish jaryonlarini samarali boshqarishning tashkiliy modellari va ulardan foydalanish usullari.....	1162
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	
Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati bo'yicha nazariy asoslar.....	1169
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li	
Adoption of electric vehicles in logistics: opportunities and challenges in Uzbekistan.....	1175
Oblokulova Parvina	
Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy mezonlari.....	1182
Jurayev Abdug'afar Sofarovich, Nazirova Sayyora Baxtiyorovna	
Raqamli transformatsiya jarayonlarining mehnat bozori konyukturasiga ta'siri.....	1187
Fayzullayev Nurulla Baxromovich, Xudaybergenova Shukurjon Erkinovna	
Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlarini rivojlantirishning o'ziga xos yondashuvi.....	1194
Niyozova Shohsanam Nuritdinovna	



Auditorlik xulosalarini shakllantirishda auditorlik dalillariga qo'yiladigan talablar.....	1199
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	
Qishloq xo'jaligi sohasini takomillashtirishda investitsion loyihalarning iqtisodiy mohiyati.....	1203
Israilova Xikoyat Musakulovna	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari.....	1207
Dadaboyeva Marguba Mamasoliyevna	
Eko va agro-turizmga raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishning istiqbollari	1212
Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna	
The importance of the cluster system in the agricultural field.....	1217
Sherkulov Shokhrukh Erkin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'llari.....	1221
Mardonov Mashrab Mansurovich, Muxtorov Abduxolik Abduxalimovich	
Aksiz solig'i amaliyotining genezisi, milliy xususiyatlari, turlari va vazifalarining nazariy jihatlar.....	1225
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Iqtisodiyotning real sektor tushunchasi, uning tarkibi va iqtisodiyotdagi ahamiyati.....	1230
Mahmudov Nurali Komilovich	
Korporativ moliya tizimini rivojlantirishda raqamli moliya vositalari va texnologiyalarning integratsiyasi.....	1241
Xalbekov Ozodbek Xudoykulovich	
The influence of tour interpretation on perceived heritage values: a comparative analysis of tourists with and without guided interpretation at a heritage destination	1245
Shokhnigorbegim Juraeva	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish	1252
Xazratov Abror Panjiyevich	
Madaniy meros obyektlari asosida barqaror turizmni rivojlantirish strategiyalari.....	1257
Abriev Zoirjon	
Пути инновационного развития национальной экономики.....	1262
Жураев Тошболта Тухтаевич	
Hududlarda turizmni rivojlantirishda to'siqsiz, barqaror turizmni tashkil etish zarurati	1267
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna	
Application of ifrs in budgetary accounting.....	1272
G. Djambakieva	
Transport xizmatlari sektorining rivojlanishini statistik tahlili: xorazm viloyati misolida.....	1276
Raximov Alisher Ibragimovich	



TRANSPORT XIZMATLARI SEKTORINING RIVOJLANISHINI STATISTIK TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA

Raximov Alisher Ibragimovich

Urganch Ranch texnologiya

universiteti katta o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0007-2188-6831>

Email: rahimovalisher@umail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyatida transport xizmatlari sektorining 2010–2023-yillar davomidagi rivojlanish tendensiyalari statistik usullar yordamida chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda transport xizmatlarining samaradorligi, yillik o'sish sur'atlari hamda hududiy iqtisodiyotga ko'rsatayotgan bevosita va bilvosita ta'siri baholangan. Tahlillar natijasida sohadagi muhim yo'nalishlar, muammolar va imkoniyatlar aniqlanib, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, mintaqaviy logistika markazlarini shakllantirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Mazkur tadqiqot natijalari transport sektorining barqaror o'sishini ta'minlash va viloyat iqtisodiy rivojlanishining strategik yo'nalishlarini belgilashda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: transport xizmatlari, statistika, hududiy iqtisodiyot, yuk tashish, transport infratuzilmasi, Xorazm viloyati.

Abstract: This article provides a comprehensive statistical analysis of the development trends in the transport services sector in the Khorezm region over the period 2010–2023. The study evaluates the efficiency of transport services, annual growth rates, and their direct and indirect impact on the regional economy. Based on the analysis, key directions, challenges, and growth opportunities in the sector are identified. Practical recommendations are proposed, including the modernization of transport infrastructure, the integration of digital technologies, and the establishment of regional logistics hubs. The findings of this research serve as a scientific basis for ensuring the sustainable growth of the transport sector and for defining the strategic priorities of regional socio-economic development.

Key words: transport services, transport services, statistics, regional economy, freight transportation, transport infrastructure, Khorezm region.

Аннотация: В данной статье всесторонне проанализированы тенденции развития сектора транспортных услуг в Хорезмской области в период 2010–2023 годов с использованием статистических методов. В исследовании дана оценка эффективности транспортных услуг, темпов их роста, а также прямого и косвенного влияния на региональную экономику. В результате анализа выявлены ключевые направления, проблемы и потенциал развития отрасли, на основе чего разработаны практические рекомендации по модернизации транспортной инфраструктуры, широкому внедрению цифровых технологий и созданию региональных логистических центров. Полученные результаты служат научной основой для обеспечения устойчивого роста транспортного сектора и определения стратегических направлений социально-экономического развития региона.

Ключевые слова: транспортные услуги, статистика, региональная экономика, грузоперевозки, транспортная инфраструктура, Хорезмская область.

KIRISH

So'nggi yillarda transport xizmatlari sektori nafaqat ichki logistika tizimining samaradorligini belgilovchi, balki hududlararo integratsiya va hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiruvchi strategik tarmoqqa aylangan. Xizmatlar sektori tarkibida transport xizmatlarining ortib borayotgan ulushi iqtisodiyotning tarmoqlararo aloqalarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, globallashtirish jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi sharoitda hududiy transport infratuzilmasining rivojlanganligi, texnologik yangiliklarga moslashuv darajasi va mintaqaviy logistika tizimining samarali tashkil etilishi iqtisodiy raqobatbardoshlikning muhim omilidir.

Xorazm viloyati misolida olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, 2010–2023-yillar davomida transport xizmatlari sektori barqaror o'sish tendensiyalarini namoyon qilgan, biroq ayrim yillarda, ayniqsa pandemiya



davrida, o'sish sur'atlarining sekinlashuvi yoki qisqa muddatli pasayishlar kuzatilgan. Bunday holatlar sohaga chuqur statistik baho berish, dinamik o'zgarishlarni aniqlash va xizmatlar tarkibidagi ichki strukturaviy siljishlarni tahlil qilish zarurligini taqozo etadi. Ayniqsa, avtomobil transporti yo'nalishida yuk va yo'lovchi tashish hajmlarining yillik o'zgarishini o'rganish, sektordagi iqtisodiy samaradorlikni baholash dolzarb masalalardan biridir.

Mazkur maqola Xorazm viloyatida transport xizmatlari sektorining rivojlanishini statistik jihatdan baholashga bag'ishlangan bo'lib, uning asosiy maqsadi – transport xizmatlarining iqtisodiy o'sishdagi o'rnini aniqlash, mavjud muammolarni ochib berish hamda sohaga oid takomillashtirish choralarini ishlab chiqishdan iboratdir. Shu bilan birga, maqolada transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, mintaqaviy logistika markazlarini tashkil etish orqali xizmatlar sifati va qamrovini oshirish imkoniyatlari ham tahlil qilinadi.

Ushbu yondashuv O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston – 2030"¹ strategiyasida belgilangan milliy transport tizimini global logistika tarmoqlariga integratsiyalashuv, yuk va yo'lovchi tashish hajmlarini bir necha barobarga oshirish, temiryo'l infratuzilmasini elektrlashtirish, sohada xususiy va xorijiy investorlar ishtirokini kengaytirish kabi ustuvor yo'nalishlar bilan uzviy bog'liqdir. Shu jihatdan, ushbu tadqiqot viloyat miqyosida transport xizmatlari sektorining kelgusi rivojlanish strategiyasini shakllantirishga ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Transport xizmatlari sektorining hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri bo'yicha ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Aksariyat tadqiqotchilar ushbu sektorni yalpi ichki mahsulotning o'sishiga muhim hissa qo'shuvchi omil, aholi bandligini ta'minlovchi va yangi ish o'rinlarini yaratuvchi tarmoq, shuningdek, hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini va raqobatbardoshligini oshiruvchi strategik yo'nalish sifatida baholashgan.

Xususan, iqtisodiyot fanlari doktorlari B.A.Begalov, I.E.Zhukovkayalar tomonidan ilg'or texnologik yechimlardan foydalanish natijasida olingan ilmiy adabiyotlar, maxsus uslubiy materiallar, statistik ma'lumotlar tahlili asosida O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish va servis sohasining rivojlanishi tahlil qilingan, shu jumladan transport xizmatlarining o'zni tadqiq qilingan.

Tadqiqotchilar D.B. Butanov, Y.P.Pulatov, U.N.Pardayevalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda transport sohasida xizmatlar sifatini oshirishning dolzarb jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda aholiga ko'rsatilayotgan transport xizmatlarida servisning o'rnini aniqlash, mavjud kamchiliklarni ochib berish va uni yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqishga e'tibor qaratganlar.

Tadqiqotchi A. Wiktorowska-Jasik olib borgan tadqiqotda Polsha quruqlik transporti sektori xizmatlarining segmentlari, ularning tarkibiy o'zgarishlari va so'nggi 10 yildagi rivojlanish dinamikasi statistik tahlil asosida o'rganilgan. Tadqiqotda transport tarmoqlari bo'yicha xizmat turlari va ularning funksional xususiyatlari ajratib ko'rsatilgan.

Shuningdek, bir qator iqtisodchilar tomonidan transport xizmatlari ko'rsatishning xizmatlar sohasini rivojlantirishdagi roli, malakat va hududlar iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyti va sohani rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari tahlil qilingan.

Bu mavzuga oid ishlarga XX.Xikmatov, Z.X. Abdullayev, A.K.Amonov, M.Sh. Komilova, B.E. Elmurodov, S.Segrt, B. Markovich, D. Vuchinich, P.Surovec kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarni misol keltirsak bo'ladi.

Xorazm viloyatida hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda transport xizmatlari sektorining tutgan o'rnini chuqur o'rganish, ayniqsa ushbu xizmatlar tarmog'ining mintaqa iqtisodiyotiga ko'rsatgan ta'sirini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu orqali viloyatda mavjud transport-logistika infratuzilmasining salohiyati, xizmatlar sifati va hududlararo integratsiyadagi roli aniqlanadi hamda mintaqaviy iqtisodiy faollikni kuchaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga zamin yaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda dinamik qatorlar tahlili, o'sish va o'garish sur'atlarini hisoblash, hududiy solishtirmo tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, statistik guruhlash usullaridan foydalanildi. Tahlil jarayonida sektorning mavjud holati baholanib, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va logistika salohiyatini kuchaytirish bo'yicha hali to'liq foydalanilmagan imkoniyatlar ko'rib chiqildi. Natijada, amaliy takliflar ishlab chiqilib, transport xizmatlari sektorining iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasi bo'yicha asosli xulosalar olindi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida. 2023-yil 11-sentabr, PF-158-son Farmoni. — URL: <https://lex.uz/docs/6600413>



TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm viloyatidagi transport xizmatlari sektorining rivojlanishi va uning hududiy iqtisodiyotga ta'siri muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu ilmiy ishda transport xizmatlarining samaradorligini, rentabelligini va iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini aniqlash uchun statistik usullar qo'llaniladi. Transport infratuzilmasining samarali ishlashi mintaqaning iqtisodiy o'sishiga bevosita ta'sir qiladi, shuning uchun uning rivojlanish omillarini o'rganish dolzarb masaladir.

Transport xizmatlari mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismi bo'lib, u xizmatlar sohasi va sanoatning o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Transport sektori samaradorligini baholash uchun statistik tahlil orqali uning holati va kelajakdagi tendensiyalarini aniqlash mumkin. Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar, jumladan sun'iy intellekt va buyumlar interneti texnologiyalarining rivojlanishi transport xizmatlari sifatini oshirish imkonini beradi.

Xorazm viloyatidagi transport xizmatlari sektori 2010-yildan 2023-yilgacha o'sish va pasayish davrlarini boshdan kechirdi. 2010-yilda transport xizmatlari sektorining o'sish sur'ati 115,1% ni tashkil etgan bo'lib, bu yil viloyat iqtisodiyotining transport xizmatlariga bo'lgan talabning yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Biroq, 2020-yilda o'sish sur'ati 101,5% ga tushib, bu davrda global pandemiya va iqtisodiy inqirozning transport sektori faoliyatiga ta'siri kuzatildi. Pandemiya sharoitida transport xizmatlariga bo'lgan talabning pasayishi va qator cheklavlar sektorda jiddiy to'siqlar yaratgan.

Shunga qaramay, 2021-yildan boshlab, transport xizmatlari sektori yana tiklanishni boshladi va 2023-yilda o'sish sur'ati 114,5% ga yetdi. Bu o'sish viloyatdagi transport tarmog'ining tiklanishi va yangilanishi, raqamli texnologiyalarni joriy etish va yangi transport xizmatlari turlarining rivojlanishi bilan bog'liq. Urganch shahri, Xorazm viloyatining iqtisodiy markazi sifatida, 2010-yildan 2023-yilgacha transport xizmatlari sohasida barqaror o'sishni ko'rsatdi. 2020-yilda o'sish sur'ati 103,2% bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 119,6% ga yetdi, ya'ni Urganch shahrida transport xizmatlari sektori tiklandi va rivojlandi.

Xiva shahri va boshqa tumanlarda ham transport xizmatlari sohasida o'sish kuzatildi, ammo bu hududlarda o'sish sur'ati viloyat markazlari – Urganch va boshqa yirik shaharlarga nisbatan biroz pastroq bo'ldi. Bu hududlarda transport infratuzilmasi va xizmatlari rivojlanishning o'ziga xos qiyinchiliklari mavjud bo'lib, aholi zichligining pastligi, transport tarmoqlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi yoki moliyaviy resurslarning cheklanganligidir. Shunga qaramay, bu hududlardagi o'sish ham viloyatning umumiy iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xiva shahri 2018-yildan boshlab transport xizmatlari sohasida o'sish tendensiyasini ko'rsatdi, bu shaharning iqtisodiy faolligining oshishini va transport sektoriga bo'lgan talabning ortishini bildiradi. Xiva shahri, Xorazmning muhim turistik markazi sifatida, turizm va savdo sohalarida transport xizmatlariga bo'lgan ehtiyojning oshishi bilan bog'liq o'sishni ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Bog'ot, Gurlan, Qo'shko'pir, va Hazorasp tumanlarida ham transport xizmatlari sohasida o'sish kuzatildi. Bu hududlarda, ayniqsa, viloyat markazlariga nisbatan kichikroq bo'lsada, transport infratuzilmasining rivojlanishi va yo'lovchi tashish xizmatlarining o'sishi qayd etildi. Ammo ba'zi hududlarda transport xizmatlari hajmida pasayishlar ham ro'y berdi. Bu pasayishlar ba'zan transport xizmatlariga bo'lgan talabning qisqarishi yoki yirik investitsiyalarning yetishmasligi bilan bog'liqdir.

Biroq, barcha hududlarda transport xizmatlarining rivojlanishi hududiy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Yo'lovchi tashish va yuk tashish xizmatlari hajmining oshishi, nafaqat transport sohasidagi faollikni oshirdi, balki viloyat iqtisodiyotining boshqa sohalariga ham foyda keltirdi. Masalan, transportning o'sishi savdo, turizm, sanoat va xizmatlar sohalaridagi iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatladi. Bunday o'sish transport sektorining viloyat iqtisodiyotidagi o'rnini kuchaytiradi va qo'shimcha ish o'rinlarini yaratadi, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, transport xizmatlarining rivojlanishi viloyatning boshqa sohalaridagi o'sishni ham rag'batlantiradi, bu esa umumiy iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.


Xorazm viloyatida yo'lovchi tashish va yuk tashish xizmatlarining o'sishi, iqtisodiy faollikni oshirishga katta hissa qo'shmoqda. 2010-yilda yo'lovchi tashish hajmi 338 511,4 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 478 341,4 ming kishiga yetdi. Bu o'sish transport xizmatlarining kengayishi va viloyatdagi umumiy iqtisodiy faollikning ortishi bilan bog'liq. Ayniqsa, Urganch shahrida 2010-yilda 49 925,8 ming kishi tashilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 98 227,2 ming kishiga oshdi, bu shahar iqtisodiyotining transport sektori orqali rivojlanishini ko'rsatadi. Urganch shahri, viloyatning eng yirik iqtisodiy markazi sifatida, transport xizmatlarining o'sishi bilan birga, yo'lovchi tashish hajmining ortishi savdo, xizmatlar va sanoat sohalaridagi faollikni oshiradi.

Yuk tashish xizmatlari ham o'sish tendensiyasini ko'rsatdi. 2010-yilda 38 300 ming tonna yuk tashilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 38 931,1 ming tonnaga yetdi. Bu o'sish transport tarmog'ining samarali ishlashi va viloyat iqtisodiyotidagi boshqa sohalar bilan integratsiyasining natijasidir. Yuk tashish hajmining oshishi savdo va ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishiga yordam beradi, chunki yuk tashish logistikasining



samarali tashkil etilishi tovarlarni o'z vaqtida yetkazib berish va ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilashga imkon yaratadi.

Xorazm viloyatidagi transport sektori rivojlanishi, ayniqsa, Urganch va Xiva shaharlarida xizmatlar va sanoat sohalarining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Transport infratuzilmasining takomillashtirilishi, viloyatdagi savdo va ishlab chiqarish sohalariga katta ta'sir ko'rsatib, ularning o'sishini rag'batlantirdi. Bu esa viloyat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga va yangi ish o'rinlarining yaratilishiga xizmat qiladi. Transport xizmatlari hajmining o'sishi, viloyat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida samarali o'zaro bog'lanishlarni ta'minladi va hududiy iqtisodiyotning yaxshilanishiga yordam berdi.



1-rasm. Transport xizmatlari ko'rsatish hajmining yillik o'sish dinamikasi (2010–2023 yillar), mlrd so'mda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatining iqtisodiyotida transport xizmatlari sektori muhim o'rin tutadi. Transport xizmatlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi, transport sohasining viloyat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi, aholi bandligi darajasi va transport sektori uchun yo'naltirilgan investitsiyalar viloyatda transport xizmatlari sektorining ijobiy rivojlanishini ko'rsatadi. Biroq, ijobiy tendentsiyalarga qaramay, Xorazm viloyatida transport infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi, transport tarmog'ini rivojlantirishda ishga solinmagan imkoniyatlar mavjudligini ta'kidlaydi.

Xorazm viloyatida transport xizmatlari sektorining rivojlanishini tahlil qilish asosida quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

Transport infratuzilmasini yangilash: Yangi yo'l tarmoqlarini yaratish va mavjud yo'llarni takomillashtirish viloyatdagi transport tarmoqlari samaradorligini oshiradi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish: Buyumlar interneti texnologiyalarini transport monitoringida qo'llash, transport jarayonlarini samarali boshqarishga yordam beradi.

Mintaqaviy logistika markazlarini tashkil etish: Yuk tashish va xizmat ko'rsatish tizimini samarali boshqarish uchun logistika markazlarini yaratish.

Yo'lovchi tashish xizmatlarini diversifikatsiya qilish: Avtobus, mikroavtobus va zamonaviy taksi xizmatlarini rivojlantirish, aholi ehtiyojlarini qondiradi.

Tumanlar bo'yicha transport xizmatlarini kuchaytirish: Yangi marshrutlar tashkil etish, chekka hududlardagi transportni yaxshilash.

Malakali kadrlarni tayyorlash: Transport sektori uchun maxsus kurslar va ta'lim muassasalarini tashkil etish.

Xorazm viloyatidagi transport xizmatlari sektori o'sishi viloyatning umumiy iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Transport infratuzilmasini yangilash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, mintaqaviy logistika markazlarini tashkil etish va transport sektori uchun malakali kadrlarni tayyorlash orqali viloyat transport tizimini yanada samarali qilish mumkin. Ushbu takliflar, shuningdek, viloyatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va transport xizmatlarining sifatini oshirishga yordam beradi, bu esa Xorazm viloyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida. 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni.
2. 2021-yil 11 maydagi PQ-5113-sonli "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezident Qarori.



3. 2022-yil 27 yanvardagi PQ-104-sonli "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezident Qarori.
4. Бегалов Б.А., Жуковская И.Е., Развитие сферы услуг– результаты настоящего для перспектив в будущем. Экономика предприятий, регионов и отраслей, 76-82
5. D.B. Butanov, Y.P.Pulatov, U.N.Pardayeva, Aholiga transport xizmatini ko'rsatishda rervising o'rni, International journal of scientific researchers, 2025, 440-445.
6. Anna Wiktorowska-Jasik. "Land Transport Services - Service Structure and Development Dynamics Analysis". Ekonomiczne Problemy Usług 3:93-105. <https://www.ceeol.com/search/article-detail?id=58991>
7. Slobodan Šegrt, Sanja Šegrt, Branka Marković, Dragan Vučinić. "Statistical Analysis of the Survey "Development of Sustainable Transportation and Logistics Service Systems Based on Supply Chain"". International Journal of Economics & Law 39:113-140. <https://www.ceeol.com/search/article-detail?id=1226775>
8. Pavel Surovec. "Public Passenger Transport Service in Regions". Komunikácie – vedecké listy Žilinskej univerzity v Žiline 1-2:10-17. <https://www.ceeol.com/search/article-detail?id=1127021>
9. O'zbekiston respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/>
10. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. <https://xorazmstat.uz/uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
